YAPONIYA MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA KOREYADA XOTIN-QIZLAR IQTISODIY HAYOTI (1910-1945)

Abdusattorova Farangiza Akramjon qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
tayanch doktoranti
abdusattorovafarangiza@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yaponiya mustamlakachilik davrida Koreya yarimorolida xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyati, yollanma mehnat shakllari va ularning mehnat munosabatlari muammolarining davr matbuotida aks etishi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor to'qimachilik va boshqa ishlab chiqarish korxonalarida ishlagan yosh qizlar, ayollar, shuningdek, uy xizmatchilari hamda ta'lim olgan xotin-qizlarning yangi kasblarga kirib kelishiga qaratilgan. Mavjud ilmiy adabiyotlar va matbuotga oid qaydlar asosida ayollar mehnatining sinfiy tengsizlik, gender me'yorlari va mustamlaka iqtisodiyoti bilan bog'liq jihatlari ko'rib chiqiladi. Dastlabki tahlil matbuot ayollarning og'ir mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoyasizligini yoritish bilan birga, iqtisodiy mustaqillik haqidagi qarashlar muhokama qilinadigan maydon ham bo'lganini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Koreya mustamlaka devri, xotin-qizlar mehnati, matbuot. Iqtisodiy faoliyat, uy xizmatchilari, yogong(ayol ishchi).*

Kirish

1910–1945-yillarda Koreya Yaponiya mustamlakachiligi ostida bo'ldi. Bu davrda iqtisodiy tuzilma, mehnat bozori va ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar xotin-qizlarning kundalik hayotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Mustamlaka davrida koreys xotin-qizlarining hayoti ikki barobar og'irlashgan. Ular bir vaqtning o'zida ham an'anaviy patriarxal tizim, ham mustamlakachi kapitalizm tizimi tomonidan ezildi. Yapon hukumati ayollarni uy tashqarisida (zavod va dalalarda) og'ir mehnatga jalb qilgan va ulardan "an'anaviy itoatkorlik va fazilatni" saqlashni talab qilgan. Bu esa xotin-qizlarning zimmasiga cheksiz yuk yukladi.[1;3] Bu davrda xotin-qizlar mehnati an'anaviy agrar jamiyatdan sanoatlashgan mustamlaka iqtisodiyotiga o'tish davrida tubdan o'zgardi.

Muhokama

Yaponiya imperiyasi Koreya yarimorolini o‘zining iqtisodiy va harbiy bazasiga aylantirish jarayonida koreys xotin-qizlarining arzon mehnat kuchidan keng ko‘lamda foydalandi. Shuningdek, xotin-qizlar mehnatini faqat iqtisodiy jarayon sifatida emas, balki matbuotda qanday tasvirlangan va muhokama qilingan ijtimoiy muammo sifatida o‘rganish zarurati bilan belgilanadi. Matbuot materiallari ayollarning mehnat sharoitlari, maosh, uy xizmatchilarining himoyasizligi va iqtisodiy mustaqillik haqidagi munozaralarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu davrda xotin-qizlarni mehnatga jalb qilishning quyidagi shakllarda namoyon bo‘ldi: [2;116]

- Dastlabki shakl sifatida, “Yogong” (여공 — Ishchi qizlar) qatlamining shakllanishida namoyon bo‘lib, 1920-1930-yillarda Koreyada yengil sanoat (to‘qimachilik, kauchuk poyabzallar, ipakchilik) rivojlanishi bilan shaharlarda zavod va fabrikalarda ishlaydigan “yogong” (ishchi qizlar) deb ataluvchi yangi ijtimoiy qatlam paydo bo‘ldi. Ishchilarning aksariyati qishloqlardan kelgan, turmushga chiqmagan juda yosh qizlar (ko‘pincha o‘smirlar) bo‘lib, qizlar kuniga 12 dan 14 soatgacha, ventilyatsiyasiz, nam va og‘ir sexlarda ishlashgan. Ularning oylik maoshi yapon ishchi ayollaridan ikki barobar, koreys erkaklaridan esa ancha past bo‘lgan. Ko‘plab zavodlar qizlarni nazorat ostida ushlab turish uchun fabrikalar qoshidagi umumiy yotoqxonalarga joylashtirgan. Bu joylar qattiq harbiy intizom va sanitariya talablariga javob bermaydigan sharoitlari bilan ajralib turardi.
- Ikkinchi shakl – Sanoatning diversifikatsiyasi va og‘ir mehnat davri (1930–1940-yillar). Bu davrda Yaponiya Ikkinchi jahon urushiga tayyorgarlik ko‘rish va uni olib borish jarayonida Koreya sanoatini harbiy ehtiyojlarga moslashtirdi. Agar avval xotin-qizlar faqat to‘qimachilikda ishlagan bo‘lsa, 1930-yillarning oxiridan boshlab ular kimyo sanoati, tog‘-kon sanoati va metallurgiya kabi og‘ir va xavfli sohalarga jalb qilindi. Koreys erkaklari frontga yoki Yaponiyadagi og‘ir konlarga majburiy safarbar etilgach, Koreya ichidagi qishloq xo‘jaligi va zavodlardagi jismoniy mehnat to‘liq xotin-qizlar zimmasiga tushdi.
- Uchinchi shakl, uy xizmatchisi va xizmat ko‘rsatish sohasida ishlaydigan xotin-qizlar. Urbanizatsiya natijasida koreys ayollari uchun yangi ish turlari paydo bo‘ldi. Koreyaga ko‘chib kelgan yapon amaldorlari va boy tabaqa vakillarining uylarida oshpaz, enaga va farrosh bo‘lib ishlash koreys qizlari o‘rtasida eng keng tarqalgan shartnomaviy mehnat turlaridan biri edi. Garchi juda ozchilikni tashkil etsa-da, zamonaviy ta’lim olgan “shinyosong” xotin-qizlar hisobchi, o‘qituvchi, hamshira, telefon operatori va jurnalist sifatida faoliyat yurita boshladilar.

Mustamlaka davri matbuoti materiallari asosida ayollarning o‘z strategiyalari va qarashlari tahlil qilinadi.[3; 27] Matbuotda o‘qimishli “yangi ayollar” oddiy koreys xotin-qizlarini erkakka mutlaq qaram bo‘lgani, mustaqillik ruhidan mosuvoligi va erkak hisobiga yashaydigan “parazitlar” ekanligi uchun tanqid qilgan. Yozuvchi Im Hyo Jong kabi publitsistlar matbuotda ayol kishi oilaviy kishanlardan qutulishi uchun mardlarcha o‘z iqtisodiy mustaqilligiga ega bo‘lishi shartligini yozishgan (masalan, 1935-yilgi “Shin kajong”da mustaqil ayol – iqtisodiy jihatdan erkin ayoldir deyilgan). O‘sha davrning mashhur “Pyol kongon” jurnali reportajlarida jamoat sohasiga (tikuvchilik, kadrlar, haydovchilik, bank xizmati, farmatsevtika kabi) kirib borgan ishchi ayollarning og‘ir tajribalari tahlil qilingan.

Ishga kirgan ayollar erkaklar sohasiga daxl qilgani uchun jamiyatda “ularning qobiliyatiga shubha bilan qarash” va “mehnatini qadrsizlantirish” muammolariga duch kelishgan. Eng yomoni, erkaklar ularga “mehnat subyekti” (hamkasb) sifatida emas, balki faqat “jinsiy obyekt” sifatida qarashgan.

1930-yillardagi xotin-qizlar jurnallarining eng katta yutug‘i — ular faqat elita (o‘qimishli) ayollar g‘oyalarini yozmay, fabrikalarda ishlayotgan oddiy ishchi xotin-qizlar va uy xizmatchilari faoliyatini yoritgan. “Shin kajong” (“yangi oila”) va “Yosong” (“Qizlar”) jurnallarida muntazam ravishda “davra suhbatlari” va intervyular chop etilgan. Unda oddiy ishchi qizlar, yotoqxonalardagi og‘ir sharoitlar, oylik maoshlarning kamligi va xo‘jayinlarning zo‘ravonliklari haqida birinchi shaxs nomidan gapirib, o‘z noroziliklarini bildirishgan. 1930-yillarga kelib, jahon iqtisodiy inqirozi va Koreyadagi sanoatlashuv natijasida muqovalarda professional va ishchi ayollar paydo bo‘la boshladi. Muqovalarda telefon operatorlari (aynan ayollar bajaradigan nufuzli zamonaviy kasb hisoblangan), shifokor xalatidagi ayollar, zavod ishchilari yoki qo‘lida maishiy texnika ushlagan zamonaviy uy bekalari tasvirlangan. Ushbu rasmlardagi ayollar an’anaviy rasmlardagi kabi yerga qarab turgan ma’yus, itoatkor holatda emas, balki to‘g‘ri tomoshabinning ko‘ziga qarab turgan, dadil, o‘ziga ishongan va harakatdagi shaxslar sifatida chizilgan. Bu rasmlar orqali jurnallar jamiyatga quyidagi xabarni bergan: “Yangi ayol – bu shunchaki chiroyli va o‘qimishli xonim emas, u iqtisodiy ishlab chiqarishning faol ishtirokchisidir”.[4; 56]

Uy xizmatchilari tomonidan yozilgan real kundaliklar va shikoyat xatlari ham jurnal sahifalarida berilgan. 1930-yillarda qishloqlardagi qashshoqlik tufayli minglab yosh qizlar Seul kabi yirik shaharlarga kelib, boy koreys yoki yapon xonadonlarida uy xizmatchisi bo‘lib ishlay boshladilar. “Shin kachong” jurnali o‘z sahifalarida ushbu eng himoyasiz qatlam vakillarining maktublari, kundaliklari va ular bilan o‘tkazilgan intervyularni muntazam chop etib borgan. Ushbu maktub va kundaliklarda ishchilar o‘z

maktublarida tonggi soat 5:00 dan yarim tungacha tinmay ishlashlarini yozishgan. Ularning vazifasiga ovqat qilish, uyni tozalash, bolalarga qarash va kiyim yuvish kirgan. Bir xizmatchi qiz o‘z kundaligida shunday yozadi:[5; 28] “Mening qo‘llarim doimiy sovuq suv va kir yuvish kukunlaridan yorilib, qonab ketadi. Lekin xo‘jayinim buni ko‘rib, kiyimlarni yaxshi chaymading deb urishadi”. Jurnaldagi xatlarda qizlar o‘zlarini quldek his qilishlarini bayon etishgan. Xonadon egalari ularga ism-sharifi bilan emas, shunchaki “Hoy” yoki “Xizmatchi” deb murojaat qilgan. Qizlar o‘z maktublarida uydagi eng sifatsiz va qolib ketgan ovqatlar bilan oziqlanishlarini, ko‘pincha sovuq dahlizlarda yoki oshxonaning bir burchagida uxlashlarini yozib hasrat qilishgan. Ko‘plab xizmatchi qizlar o‘z maktublarida va’da qilingan oylik maoshlarini oylar davomida ololmasliklarini, xo‘jayinlar “ovqating va yashashing uchun ushlab qoldim” deb ularni mutlaqo pulsiz qoldirishganini yozishgan. Topgan ozroq pullarini esa qishloqdagi ota-onalari va ukalarining ta’limi uchun yuborishgan. Eng fojiali maktublar uy ichidagi zo‘ravonliklarga oid edi. Xizmatchi qizlar ko‘pincha xonadon egasi yoki ularning voyaga yetgan o‘g‘illari tomonidan jinsiy tazyiqlarga uchrashgan. Bunday holat oshkor bo‘lsa, jamiyat va xonadon bekasi aybni xizmatchi qizga to‘nkab, uni ko‘chaga haydab yuborgan. Jurnallar bunday fojialarni ommaga olib chiqib, ayollar o‘rtasidagi sinfiy tafovutni va boy ayollarning ham o‘z jinsdoshlariga nisbatan shafqatsizligini qattiq tanqid qilgan.

Xulosa.

Yaponiya mustamlakachiligi davrida Koreya xotin-qizlarining iqtisodiy hayoti sanoat korxonalaridagi yollanma mehnat, qishloq xo‘jaligi, uy xizmatlari va yangi kasbiy faoliyat shakllarini qamrab olganini ko‘rsatadi. Ayollar mehnati iqtisodiy ehtiyojlar bilan bir qatorda gender me’yorlari va ijtimoiy tengsizlik sharoitida kechgan. izlar mehnatining iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati ortib borganiga qaramay, ularning mehnat sharoitlari, ish haqi, kasbiy imkoniyatlari va ijtimoiy mavqeyida jiddiy tengsizliklar saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ayollarning haq to‘lanadigan mehnati bilan oilaviy majburiyatlari o‘rtasidagi ziddiyat ularning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklovchi omillardan biri bo‘lgan. Mustamlaka boshqaruvi sharoitida iqtisodiy o‘zgarishlar ayollar uchun yangi mehnat imkoniyatlarini yaratgan bo‘lsa-da, bu imkoniyatlar ko‘pincha mavjud ijtimoiy va gender tengsizligi bilan chegaralangan.

Shunday qilib, Koreya xotin-qizlarining iqtisodiy tarixini faqat mehnat faoliyatining kengayishi orqali emas, balki iqtisodiy munosabatlar, gender tafovutlari va mustamlakachilik siyosatining o‘zaro ta’siri doirasida baholash lozim. Ushbu yondashuv ayollarning iqtisodiy hayotdagi o‘rnini chuqurroq anglash, ularning mehnati jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini tarixiy jihatdan asoslash hamda Koreya

jamiyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni xotin-qizlar tajribasi orqali yoritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Park, Jin-kyung. “Bodies for Empire: Biopolitics, Reproduction, and Sexual Knowledge in Late Colonial Korea.” Uisahak, 23(2), 2014, pp. 203–238. https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/25223220/
2. Kim, Janice C. H. “The Varieties of Women’s Wage Work in Colonial Korea.” The Review of Korean Studies, 10(3), June 2007, pp. 119–146.
3. Kim, Young-Sun. “Gendered Korean Colonial Modernity: ‘Housewifization’ of Korean Colonial Women and the Reconfiguration of Domestic Work.” The Review of Korean Studies, 12(4), December 2009, pp. 205–233.
4. Shin kajong (신가정), 1930-yil sentabr soni.
5. Shin kajong (신가정), 1936-yil iyun soni. Dastlabki hujjatda keltirilgan “Ilsingmoui nunmulgyeoun sugi — namuijip sari simnyeon iolsida” 일식모의 눈물겨운 수기 — 남의집 사리 십년 이올시다) — o‘zbekchaga “Xizmatchi ayolning ko‘zyoshli xotiralari: Begona uydagi o‘n yillik hayot”